

**BUXORO VILOYATIDA CHORVACHILIK TARMOG'I  
YASHILLASHISH HOLATI TAHLILI.**

**Ikromov. E.I.**

*Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Respublika xo'jaliklarida chorvachilikni rivojlantirish, ularning mahsulorligini yanada oshirish, mustahkam ozuqa bazasini yaratish, seleksiya usullaridan foydalanib, mamlakat hududida urchitilayotgan barcha turdag'i chorva mollarning nasl sifatini yaxshilash, ularning biologik xususiyatlarini chuqurroq o'rGANISH UCHUN NASLCHILIK ISHINI RIVOJLANTIRISH, uning sifatini yanada yaxshilash borasida qonun va qarorlar qabul qilinmoqda.

**Kalit so'zlar:** YaIM, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, intellektual salohiyat, resurs.

Mamlakat Prezidentining ko'plab dasturiy ma'ruzalarida keltirilgan O'zbekiston ahолиси farovonligini oshirish strategiyasida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, xususiy sektor rivojlanishini rag'batlantirish, qishloq xo'jaligiga davlat investitsiyalari va xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish chora-tadbirlari, yashil iqtisodiyot tarmoqlarida moliyalashtirishni rivojlantirish evazidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash ko'zda tutilgan. Xususan, qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, YaIMning 28,5 foizini tashkil etadi. Unda qariyb 4,2 mln. kishi mehnat qiladi, bu esa mamlakatdagi umumi bandlikning 30% dan ortigini tashkil etadi. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari - paxta va g'alla, lekin 2020-2022 yillarda kvotalar va narx nazoratining bekor qilinishi ekinlarni diversifikatsiyashga, boshka ekinlar, meva va sabzavotlarni yetishtirishga bosqichma-bosqich o'tishga hissa qo'shmoqda. O'zbekiston dinamik islohotlar va iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatini yanada kengaytirish va diversifikatsiyash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining muhim o'rni Respublikaning iqtisodiy muvaffakiyatida qishloq xo'jaligi islohotlarining muhim rolini ham belgilab beradi. 2020-yilda asosiy e'tibor barcha toifa xo'jaliklarida chorva mol bosh soni va uning mahsulorligini oshirishga qaratildi. Prognozlarga ko'ra, ilmiy va innovatsion g'oyalarni joriy etish hisobiga meva, sabzavot, kartoshka, dukkakli va yog'li ekinlar, 16% go'sht, 13% sut, 27% tuxum, 2 marta baliq, 30% asal ishlab chiqarish hajmi har yili 6-8% ga oshadi. Meva va sabzavotlarni qayta ishslash darajasi 15%gacha, go'sht 9 dan 15%gacha, sut 14 dan 18%gacha ko'tariladi.

Shuningdek, yangi yerlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqqan yerlarni qaytarish, qishloq xo'jaligi yerlarining sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Umuman, 2026 yilga kelib, qo'shimcha muomalaga chiqarilgan qishloq xo'jaligi yerlari qariyb 900 ming gektarni, suv tejaydigan texnologiyalar joriy etilgan yerlar 1,2 million gektarni, shu jumladan, 445 ming gektarni tomchilatib sug'orishni tashkil etishi kutilmoqda. 2022-2026 yillarda paxtachilikda va g'alla-boshoqli ekinlar ishlab chiqarishda ham hosildorlik oshadi. Shu bilan birga, ekin maydonlari kamayadi, shuningdek ularning samaradorligi ham oshadi. Yerdan foydalanish masalalarida katta o'zgarish ro'y beradi, qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga olish uchun yangi mexanizmlar, ushbu yerlarni ishlatish qoidalari ishlab chiqilmoqda. Mahalliy hokimiyat organlarining qishloq xo'jaligi yerlarini ajratish - olib tashlash masalalariga aralashuvi minimallashtirildi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar albatta har taraflama jiddiy yondashuvni talab etadi. Bunday murakkab yo'nalishda talab darajasidagi natijalarga erishish uchun o'z o'rnida soha ustidan sifatli nazorat olib borilishi zarur.

Buxoro viloyatida chorvachilikni rivojlantirish, istiqbolli loyihalarni amalga oshirilishi, subsidiya ajratilishi, naslli hayvonlarning sifat (nasldorlik) ko'rsatkichlari to'g'ri aniqlanganligi, zotli mollardan oqilona foydalaniishi yuzasidan "O'zagroinspeksiya"ning viloyat boshqarmasi tomonidan doimiy nazorat olib boriladi.

Chorvachilikda naslchilik ishini nazorat qilish bo'limi tomonidan Qorako'l tumanidagi naslchilikka ixtisoslashtirilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12 maydag'i 280-sonli "Chorvachilik tarmog'iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosi o'rganilganda, jamiyatga 2020 yilning 13 dekabrida xorijdan olib kelgan 58 bosh naslli qoramol uchun jami 116 mln.so'm subsidiya mablag'i ajratilganligi ma'lum bo'ldi.

Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish va boshqa global xavf-xatarlar sharoitida aholini asosiy turdag'i oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzlusiz va barqaror narxlarda ta'minlash, aholini samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mamlakat aholisi daromadlari keskin pasayib ketishining oldini olish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15 martdag'i "Ichki iste'mol bozorini asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 135-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorga binoan asosiy vazifalari etib:

- hududlar kesimida asosiy turdag'i oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish proqnoz ko'rsatkichlari bajarilishini tahlil qilish;

- oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari aholi ehtiyojiga nisbatan kam yetishtiriladigan hududlar zaxirasi uchun yetishmaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi ehtiyojdan ortiqcha bo‘lgan hududlar hisobiga qoplash choralarini ko‘rish;

- oziq-ovqat mahsulotlari ichki bozorga tizimli yetkazib berilishi hamda ularning narxlari oshib ketmasligi yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshirish;

- narxlar keskin oshishi bilan bog‘liq xavflar yuzaga kelganda ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan takliflar kiritish;

- oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha bozorlardagi talab va taklif muvozanati, kutilayotgan ijobiy va salbiy konyunktura o‘zgarishlari, ichki bozor uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni baholab borish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish belgilandi.

-chorvachilik xo‘jaliklariga ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish holatini tahlil qilinishini tashkil etish hamda chorva bosh sonidan kelib chiqib, mutanosib ravishda ekin yerlari ajratilishi;

-chorvachilikning barcha tarmoqlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, ilmiy tadqiqot natijalari va innovatsion ishlanmalarni mahsulot ishlab chiqarish va naslchilik-seleksiya amaliyotiga joriy etish ishlarini yo‘lga qo‘yish va kadrlarni tayyorlash bilan bog‘liq boshqa masalalarni hal qilishga asosiy e’tibor qaratmoqdalar.

Viloyatimizda olib borilayotgan barcha amaliy ishlar, shuningdek, chorvachilikda naslchilik ishlarining tartibga solinishi va joylarda istiqbolli loyihalarning bajarilishi aholining go‘sish va sut mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini muntazam ishlab chiqaruvchilar bilan birgalikda kichik tomorqa yerlari va chorva mollariga ega bo‘lgan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari ishlab chiqarishning yangi bir shaklini (birlashma, uyushma yoki kooperativ) tashkil etish yo‘li bilan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini yaratishi muhim ahamiyat kasb etadi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2021 yil mos davriga nisbatan 103,7 foizni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 105,2 foizni va chorvachilik mahsulotlari 102,2 foizni tashkil qildi.

Viloyatda 2022-yilda 33 255,9 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 17 299,2 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 52,0 foizi dehqonchilik, 15 956,7 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 48,0 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2022 yilda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiylajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda Qorovulbozor, Peshko‘ va Jondor tumanlarida asosan dehqonchilik sohasining ancha rivojlanganligini ko‘rsatdi.

Ushbu tumanlarda jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 69,7-58,1 foizini dehqonchilik mahsulotlari tashkil etadi. Shuningdek, Kogon, G‘ijduvon, Qorako‘l, Shofirkon tumanlarida asosan chorvachilik sohasining ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. Ushbu hududlarda jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 63,8-52,0 foizini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.

Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 61,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 32,5 foizi fermer xo‘jaliklariga, 6,1 foizi qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda respublikamiz bo‘yicha chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari muhim o‘rin egallaydi. Buni biz birgina Buxoro mintaqasi misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak quyidagiga ega bo‘lamiz. Ya’ni, Buxoro viloyati dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida o‘rtacha 88,9 % go‘sht (tirik vaznda), 92,3 % sut, 36,2 % tuxum va 68,3 % jun ishlab chiqarilgan bo‘lsa, Sirdaryo viloyatida o‘rtacha 96,9 % go‘sht (tirik vaznda), 93,3 % sut, 65,4 % tuxum va 81,6 % jun ishlab chiqarilgan va Navoiy viloyatida esa o‘rtacha 98,7 % go‘sht (tirik vaznda), 93,3 % sut, 74,1 % tuxum va 68,3 % jun ishlab chiqarilgan.

Buni mahsulot turlari bo‘yicha qarab chiqadigan bo‘lsak quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ya’ni, Buxoro mintaqasidagi qishloq xo‘jaligi korxonalarida o‘rtacha 2,7 % go‘sht (tirik vaznda), 1,9 % sut, 34,1 % tuxum va 4,5 % jun, fermer xo‘jaliklarida o‘rtacha 2,5 % go‘sht (tirik vaznda), 3,9 % sut, 7,3 % tuxum va 16,4 % jun ishlab chiqarilgan bo‘lsa, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida esa o‘rtacha 94,8 % go‘sht (tirik vaznda), 94,3 % sut, 58,6 % tuxum va 79,0 % jun ishlab chiqarilgan.

Mamlakatimizda qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya samarador texnologiyalardan sanoatning barcha yo‘nalishida- shahar transport tarmog‘ida, uy-joy, mehmonxona va issiqxona xo‘jaligida keng foydalanish mumkin. Ushbu yo‘nalishda mamlakatimizda va butun dunyoda eng yirik sohalardan biri bu agrosanoat tizimi hisoblanadi. Tizimda yomg‘ir suvini yig‘ish, sug‘orish va tomchilab sug‘orishni joriy etish, suv nasoslaridan foydalanish orqali bir mavsumda qariyb 30 foizgacha suvni tejash imkoniyatlari mavjud. Qayd etilishicha, qaror ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta’minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish maqsadida qabul qilingan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
2. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDGETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 41, 321-325.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDGET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANТИRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 42, 481-484.
5. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.
6. Ibodulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
7. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
8. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
9. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
10. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQARISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O'RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje*, (45), 311-315.
11. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlanтиrish Istiqbollari. *Gospodarka i Innowacje*, 46, 247-251.
12. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
13. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.

- 14.** Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
- 15.** Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
- 16.** Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
- 17.** Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
- 18.** Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.
- 19.** Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
- 20.** Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KORSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
- 21.** Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalg Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszlosci*, 53, 1231-1237.
- 22.** Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIIJY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
- 23.** Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalg Qilishda Soliqlarning O 'Rni. *Gospodarka i Innowacje*, 53, 205-213.
- 24.** Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalg qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSİYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
- 25.** Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 321-325.
- 26.** Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). INNOVATIVE MANAGEMENT AS A FACTOR OF SUCCESSFUL DEVELOPMENT OF AN ENTERPRISE. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 315-320.
- 27.** Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 279-285.
- 28.** Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 167-175.

29. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 253-258.
30. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(2), 176-181.
31. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 464-468.
32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING MAZMUN-MOHIYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(2), 162-166.
33. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.
34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
35. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
36. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 341-345.